

**ABDULHAMID CHO'LPONNING "KECHA VA KUNDUZ"  
ASARINING INGLIZCHA TARJIMALARI: NOMLAR VA ULARNING  
LINGVOPRAGMATIK VA LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI**

*Shohida Ismailova*

*Urganch davlat universiteti magistranti*

*Shokhidaismailova2001@gmail.com*

**Annotatsiya:** Ushbu maqola Cho'lponning asarlaridagi nomlarni tahlil qilish va tarjima jarayonidagi ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Nomlar hamda tasviriy vositalar o'zbek madaniyati va an'analaridan kelib chiqib, asarning chuqur ma'nosini ochib beradi. Tarjima jarayonida esa, ma'noni saqlab qolish va madaniy kontekstga moslashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Umuman olganda, maqola Cho'lpon asarlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beruvchi ilmiy tahlil sifatida xizmat qiladi. Kalit so'zlar: Tasviriy vositalar, tarjima, lingvopragmatika, lingvokulturologiya, madaniy kontekst, adabiy tahlil, o'zbek adabiyoti, qahramonlar.

**Аннотация:** Данная статья посвящена анализу имен в произведениях Чулпона и исследованию их значения в процессе перевода. Исходя из узбекской культуры и традиций, имена и выразительные средства, раскрывают глубокий смысл произведения. В процессе перевода подчеркивается необходимость сохранения значений и адаптации к культурному контексту. В целом, статья служит научным анализом, способствующим более глубокому пониманию произведения Чулпона.

**Ключевые слова:** Выразительные средства, перевод, лингвопрагматика, лингвокультуры, культурный контекст, литературный анализ, узбекская литература, персонажи.

**Annotation:** This article is devoted to the analysis of names in Cholpan's works and their significance in the translation process. Names and pictorial means reveal the deep meaning of the work based on Uzbek culture and traditions. In the process of translation, he emphasizes the need to preserve the meaning and adapt it to the cultural context. In general, the article serves as a scientific analysis that contributes to a deeper understanding of Cholpan's works.

**Key words:** Visual means, translation, linguopragmatics, linguoculturalism, cultural context, literary analysis, Uzbek literature, heroes.

O'zbek adabiyotining yorqin namoyandasi Abdulhamid Sulaymon o'g'li Yunusov Cho'lpon yetuk lirik sho'irgina emas, yirik nosir sifatida o'nlab publitsistik maqolalar, ocherk va hikoyalar, «Qor qo'ynida lola», «Yov» qissalari va «Kecha va kunduz» (1938) kabi ajoyib romanining birinchi («Kecha») qismini nashr ettirgan iste'dodli adib sifatida e'tirof etiladi. «Kecha va kunduz» asari — 20-asr boshlarida nashr etilgan roman o'zbek adabiyotidagi eng muhim asarlardan biri hisoblanadi.

Roman 19-asr oxiri va 20-asr boshlarida O'zbekistonda an'ana va zamonaviylik o'rtasidagi kurashni talqin qiladi. Unda jamiyatning konservativ qadriyatlari va yangi paydo bo'lgan taraqqiyot va islohotlar g'oyalari o'rtasida qolgan yosh qahramon hayoti haqida so'z boradi. Hikoyada sevgi, zulm, shaxsiy va milliy erkinlikka intilish

mavzulari yoritilgan. An'ana va zamonaviylik: Romanda eski odatlar va yangi ilg'or g'oyalar o'rtasidagi ziddiyat tasvirlangan. Ijtimoiy adolatsizlik: O'zbek jamiyatidagi tengsizlik va zulmni tanqid qiladi. Milliy o'zlikni anglash: Cho'lpon madaniy va intellektual uyg'onish muhimligini ta'kidlaydi.

Bu asar nafaqat uning qiziqarli syujetlari va qahramonlari, balki turli tasviriy vositalari hamda nomlarning qo'llanilishi bilan ham ajralib turadi. Ushbu maqolada asarning inglizcha tarjimalarida mavjud bo'lgan tasviriy vositalar, jumladan, kinoya va o'xshatishlar hamda asarda nomlarning keltirilishi lingvopragmatik va lingvokulturologik jihatlari o'rganiladi. Asarda tasviriy vositalar: o'xshatish va kinoyalardan, shuningdek, madaniyatga xos tarixiy so'zlardan keng foydalanilgan. Bu esa tarjimada mazmun va mohiyatni saqlash uchun tarjimondan katta mahorat talab qiladi. Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarini "Night and day" nomi ostida O.Muminov va A.Khamidovlar tomonidan tarjima qilingan nusxasida bu kabi yutuqlar yaqol ko'zga tashlanadi. Misol tariqasida shuni keltirish mumkinki; "Toshday qattiq va buyumdek harakatsiz yuzi" Razzoq so'figa berilgan tarif bo'lib, tarjimada "face was like a mountain stone" tarzida keltirilgan. Shuningdek, "sovuq so'filarning «harom» degan da'volari sinib, parcha-parcha bo'lgan; «nomahramlik» safsatalari ot oyoqlari ostida yanchilgan;" asar davriga hamda madaniy, diniy qatlamga oid so'zlar va o'xshatish kabi tasviriy vositalar keltirilgan ushbu parcha ingliz tiliga "Sufi's word "harom" was broken like a piece of ice. The words about "being unmarried" have been damaged under the horses' legs." shaklida tarjima qilingan.

Tarjima matnida "paranji", "Eshon", "hokim", "Mingboshi", "harom", "So'fi" hamda "Muazzin" kabi nomlar "paranji", "Eshan", "hokim", "Mingboshi", "harom", "Sufi", "Muezzin" kabi transliteratsiya qilingan. Transliteratsiya – bu bir yozuv tizimidagi harflarni boshqa yozuv tizimidagi belgilar bilan bershga aytiladi.

Asar tarjimasida ekvivalenti mavjud bo'lmagan birliklar, tasviriy vositalar madaniy to'qnashuvlarni oldini olish maqsadida omissiondan ham keng foydalanilgan. Shuningdek, «nomahramlik» kabi madaniyatga xos so'zlarni tarjima jarayonida mazkur til vakillarining madaniy, ijtimoiy va lingvistik ehtiyojlariga moslashtirish maqsadida adaptatsiyadan foydalanilgan holatlarni uchratishimiz mumkin.

#### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Cho'lpon "Kecha va Kunduz", "Sharq" nashriyoti, Toshkent 2000-yil.
2. Chulpon "Night and day" novel Toshkent – 2014
3. "Tarjima nazariyasi" o'quv qo'llanma, I.G'afurov, O.Mo'minov, N.Qambarov
4. [https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Abdulhamid\\_Cho%CA%BBIpon](https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Abdulhamid_Cho%CA%BBIpon)